XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-22-165-5-0-K/25 Navoiy viloyati

Navoiy viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini **tasdiqlash** **toʻgʻrisida**

Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 24-moddasi, Budjet kodeksining 27, 99-moddasi, Oʻzbekiston Respublikasining “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida” 2025-yil 25-dekabrdagi OʻRQ-1105-sonli Qonuniga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yil 20-oktabrdagi 02-1515-sonli va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrdagi 01/57-1-29241-sonli, viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasining 2025-yil 25-dekabrdagi xatlari, viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasi boshligʻining birinchi oʻrinbosari Sh.Jumayevning axboroti hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi OʻRQ-1105-sonli Qonuni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasining “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjetitoʻgʻrisida”gi OʻRQ-1105-sonli Qonuniga (keyingi oʻrinlarda — Qonun deb ataladi) muvofiq, Navoiy viloyati viloyat mahalliy budjetining 2026-yil uchun budjet daromadlari4 095,6 mlrd. soʻm, xarajatlari 4 199,2 mlrd. soʻm, respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 103,6 mlrd. soʻm shundan, aksiz soligʻi tushumlari hisobidan ajratiladigan mablagʻlar 103,6 mlrd. soʻm etib belgilanganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. 2026-yil uchun Navoiy viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognozi va 2027-2028-yillarga maqsadli moʻljallar **1-ilova**ga muvofiq maʼlumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

Navoiy viloyatining viloyat budjetidaromadlarining soliq turlari kesimida 2026-yildagi asosiy prognoz koʻrsatkichlari **2-ilova**ga muvofiq;

2026-yilgi viloyat mahalliy budjetidan budjet tashkilotlari va mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga muvofiq;

2026-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar meʼyorlari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari boʻyicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini oʻrnatilgan tartibda Navoiy viloyati boʻyicha Gʻaznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qoʻyilsin.

5. Shahar va tumanlar mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi shuningdek, respublika budjetidan (aksiz soligʻi tushumlari hisobidan) hamda viloyat budjetidan tuman va shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari **5-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qatʼiy nazar kamaytirishga yoʻl qoʻyilmasligi Qonunda belgilab qoʻyilganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

6. 2026-yil uchun viloyatning viloyat budjeti zaxira jamgʻarmasi hajmlari 23,3 mlrd. soʻm miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2025-yil uchun zaxira jamgʻarmalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Bunda davlat tibbiy sugʻurtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda tegishli tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamgʻarmalari ushbu mexanizmlar joriy etilgan yildan oldingi yildagi hajmdan kam boʻlmagan miqdorlarda shakllantiriladi hamda qoʻshimcha mablagʻlarni shakllantirish tegishincha yuqori turuvchi budjetlarning zaxira jamgʻarmalari mablagʻlarini kamaytirish hisobiga amalga oshiriladi.

Belgilab qoʻyilsinki, Navoiy viloyati viloyat budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarini ijro etish chogʻida yuqori turuvchi budjetdan ajratiladigan budjetlararo transfertlarning miqdorlari oshgan taqdirda, tegishlibudjetlarining zaxira jamgʻarmalarining tegishli miqdorlari qayta koʻrib chiqilmaydi.

Navoiy viloyati mahalliy budjetihamda shahar va tumanlari budjetlarida yoʻl qoʻyiladigan eng kam mablagʻlar miqdori **6-ilova**ga muvofiq belgilansin.

7. Qonun bilan 2026-yilda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mahalliybudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash boʻyicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

8. 2026-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman (shahar) budjetlariga toʻliq hajmda oʻtkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad toʻgʻrisidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan toʻlanadigan daromad soligʻi;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (bundan yirik soliq toʻlovchilar tomonidan toʻlanadigan soliq mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (bundan yirik soliq toʻlovchilar tomonidan toʻlanadigan soliq mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan daromadlar turlari qoʻllanilganda, tumanlar va shaharlar budjetlarining daromadlari xarajatlaridan koʻp boʻlgan taqdirda, xalq deputatlari viloyat Kengashi yuqori turuvchi budjetga ajratmalarni nazarda tutishi mumkin.

b) viloyatning viloyat budjeti daromadlari viloyat mahalliy budjetiga toʻliq hajmda oʻtkaziladi:

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, tegishincha o‘tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasidan olingan Navoiy viloyati aholisining soni tuman va shaharlar aholi soni ulushiga muvofiq, bunda daromadlar Navoiy viloyatining viloyat budjeti bo‘yicha prognozning bajarilmagan qismi respublika budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanishi, daromadlar bo‘yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika budjeti ixtiyorida qolishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

v) soliqlar viloyat mahalliy budjetiga quyidagi ulushlarda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) Navoiy viloyati budjeti ixtiyorida 66 foiz qolishi;

foyda solig‘idan tushgan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaidan ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) Navoiy viloyatibudjeti ixtiyorida 67 foiz qolishi;

qo‘shilgan qiymat solig‘idan tushgan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilardan tashqari) viloyatda 20 foizi;

alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import qilinadigan alkogol mahsulotlari va pivodan tashqari) uchun ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘lanadigan aksiz solig‘ining 30 foizi o‘tkazilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

g) qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagi daromadlar respublika va viloyat mahalliy budjeti oʻrtasida taqsimlanadi:

davlat bojlari;

jarimalar;

yigʻimlar;

davlat daromadiga oʻtkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

Qonunchilikda belgilangan tartibda davlat aktivlarini sotishdan tushadigan tushumlar tegishli ravishda obyektjoylashgan tuman (shahar) mahalliy budjetilariga va viloyat budjetiga teng ulushlarda taqsimlanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi tushumlarining kamida 50 foizi (bundan yirik soliq toʻlovchilar tomonidan toʻlanadigan soliq mustasno) tuman va shaharlar mahalliy budjetlariga oʻtkaziladi.

9. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Sh.Jumayev) Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qaroriga muvofiq:

- respublika budjetidan Navoiy viloyatining viloyat budjetiga oʻtkazib beriladigan daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismining 50 foizi viloyat budjetiga qolgan 50 foizi2025-yil 1-dekabr holatiga statistika organlaridan olingan tuman (shahar)lar aholisidagi ulushiga muvofiq tuman (shahar)lar budjetlariga;

- dehqon bozorlari, ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlaridan tushgan soliqlar boʻyicha viloyat budjetiga oʻtkazilgan mablagʻlarni ushbu sohadagi hamda mahallalarda infratuzilmani yaxshilash uchun mazkur bozorlar joylashgan tuman (shahar)lar budjetlariga toʻliq oʻtkazilishini taʼminlasin.

10. Xalq deputatlari viloyat Kengashi:

- tegishli darajadagi mahalliy budjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni hamda budjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

- daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablagʻlarning bir qismini tumanlar va shaharlar budjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berilishga;

- Qonunning 8-ilovasi 1-bandida belgilangan ijara toʻlovining eng kam stavkalariga nisbatan tumanlar va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab 2,0 (ikki) gacha oshiruvchi koeffitsiyentni joriy etishga;

- xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tuman hamda shaharlarning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etishga haqliligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Qonunga muvofiq berilgan vakolatlardan kelib chiqib:

Quyidagilar:

soliqlar viloyat mahalliy budjeti va shahar (tuman)lar budjetlari o‘rtasida taqsimlansin. Jumladan

- viloyat mahalliy budjetiga qo‘shilgan qiymat solig‘idan tushgan tushumlarning viloyatdagi 20 foiz miqdoridagi ulushi viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida Karmana tumaniga 18 foiz, Navoiy shahriga 34 foiz, Qiziltepa, Tomdi, Xatirchi tumanlariga 50 foiz, Zarafshon va G‘ozg‘on shaharlariga hamda Navbahor, Nurota, Konimex, Uchquduq tumanlariga 100 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

- viloyat mahalliy budjetiga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning 66 foiz miqdoridagi ulushi viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida Navoiy shahriga 2 foiz, Karmana tumaniga 5 foiz, Tomdi tumaniga 20 foiz, Xatirchi tumaniga 50 foiz, Qiziltepa tumaniga 55 foiz, Konimex tumaniga 62 foiz, Zarafshon shahriga 95 foiz, G‘ozg‘on shahar va Navbahor, Nurota, Uchquduq tumanlariga 100 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

- viloyat mahalliy budjetiga foyda solig‘idan tushgan tushumlarning viloyati budjeti ixtiyoridagi 67 foiz miqdoridagi ulushi viloyat budjetihamda shahar va tumanlar budjetlario‘rtasida Tomdi tumaniga 20 foiz, Qiziltepa tumaniga 30 foiz, Zarafshon shahriga va Nurota, Konimex, Xatirchi tumanlariga 50 foiz, G‘ozg‘on shahriga va Navbahor, Uchquduq tumanlariga 100 foiz miqdorida (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno) budjetga taqsimlansin.

soliqlar viloyat mahalliy budjeti va shahar (tuman)lar budjetlariga o‘tkazilsin. Jumladan

- Tomdi tumanida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq mahalliy budjet daromadining xarajatidan yuqori bo‘lganligini inobatga olib, ushbu soliq tushumining 90 foizi Tomdi tumani mahalliy budjetiga, 10 foizi viloyat budjetiga (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

- 2025-yilda transfertdan chiqarish uchun benzin, dizel yoqilgʻisi va gazni oxirgi isteʼmolchiga realizatsiya qilishda toʻlanadigan aksiz soligʻi boʻyicha toʻlovning 50 foizi Nurota, Konimex tumanlariga, 70 foizi Qiziltepa tumaniga va 100 foizi Zarafshon shahar hamda Navbahor, Xatirchi, Uchquduq tumanlariga;

- viloyat mahalliy budjeti oʻrtasida taqsimlanadigan davlat boji toʻlovining 25 foizi Tomdi tumaniga, 29 foizi Qiziltepa tumaniga, 51 foizi Navbahor tumaniga, 55 foizi Xatirchi tumaniga, 60 foizi Zarafshon shahriga, 100 foizi Gʻozgʻon shahar va Nurota, Konimex, Uchquduq tumanlariga;

- viloyat mahalliy budjeti oʻrtasida taqsimlanadigan yigʻim toʻlovining 25 foizi Tomdi tumaniga, 29 foizi Qiziltepa tumaniga, 50 foizi Navbahor tumaniga, 56 foizi Xatirchi tumaniga, 66 foizi Zarafshon shahriga, 100 foizi Gʻozgʻon shahar va Nurota, Konimex, Uchquduq tumanlariga;

- viloyat mahalliy budjeti oʻrtasida taqsimlanadigan jarima toʻlovining 25 foizi Tomdi tumaniga, 28 foizi Qiziltepa tumaniga, 50 foizi Navbahor tumaniga, 55 foizi Xatirchi tumaniga, 65 foizi Zarafshon shahriga, 100 foizi Gʻozgʻon shahar va Nurota, Konimex, Uchquduq tumanlariga oʻtkazilsin.

Davlat ulushi boʻyicha dividendlar, soliqsiz va boshqa daromad toʻlovlari viloyat budjeti ixtiyorida qoldirilsin.

11. Viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari (R. Sulaymonov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Sh. Jumayev), soliq boshqarmasi (S. Nazarov) tuman (shahar) hokimliklari hamda masʼul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarini rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetining prognoz koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablagʻlaridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va masʼuliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning toʻliq tushumini taʼminlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qoʻshimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida eʼtibor qaratsin.

12. Viloyat soliq boshqarmasi (S. Nazarov)ga:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirilishini;

barcha soliq turlaridan doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rilishini;

Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi bilan birgalikda viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazorati o‘rnatilishini hamda kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsin.

13. Viloyat soliq boshqarmasi (S. Nazarov) Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Navoiy mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirish ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheyderlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

14. Majburiy ijro byurosi Navoiy viloyat boshqarmasi viloyat soliq boshqarmasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetgaundirish yuzasidan hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rib borsin.

15. Tuman va shahar hokimliklari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari boʻyicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam koʻrsatsin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi (N. Atajanov) Boʻsh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi (A. Sharipov) bilan birgalikda:

boʻsh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash boʻyicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga koʻra viloyatda mavjud boʻsh turgan davlat mulki obyektlari roʻyxatini shakllantirish;

shakllantirilgan roʻyxatga asosan boʻsh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish boʻyicha tegishli takliflar tayyorlash;

boʻsh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish boʻyicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi moʻljallangan boʻsh turgan davlat mulki obyektlarini "e-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish choralarini koʻrsin.

17. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi (N. Atajanov), viloyat soliq boshqarmasi (S. Nazarov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Sh. Jumayev) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud boʻlgan yuridik shaxslar tomonidan 2026-yilning 1-iyuliga qadar 2025-yil yakunlari boʻyicha oʻz sof foydasining 50 foizidan kam boʻlmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi boʻyicha dividendlarni 2026-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga oʻtkazilishini taʼminlasin.

18. Viloyat soliq boshqarmasi (S. Nazarov), Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi (A. Muhammadiyev) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini toʻliq xatlovdan oʻtkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari boʻyicha shartnomalar tuzish choralarini koʻrsin hamda ushbu shartnomalar boʻyicha yigʻimlarni budjetga toʻlanishi ustidan doimiy nazorat oʻrnatsin.

19.Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (O.Sadinov), viloyat soliq boshqarmasi (S. Nazarov) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda viloyatda sugʻorishga sarflanayotgan suv hajmlari boʻyicha aniq hisob-

kitoblar yuritgan holda mazkur isteʼmol hajmlari boʻyicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni toʻliq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga toʻliq undirib olish boʻyicha tizimli ishlarni olib borilishini taʼminlasin.

Bunda, qishloq xoʻjaligi korxonalari tomonidan isteʼmol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar boʻyicha hisoblanayotgan suv soliqlari boʻyicha doimiy tahlillar oʻtkazishga alohida eʼtibor qaratilsin.

20. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Tasbayev), viloyat yoʻl harakati xavfsizligi boshqarmasi hisoblangan boj, jarima va yigʻimlarni oʻz vaqtida oʻrnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini koʻrib borsin.

21. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (N.Toshev) viloyat maktabgacha va maktab taʼlimi hamda sogʻliqni saqlash boshqarmalarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qatʼiy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari boʻyicha har chorak yakuni bilan xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot kiritib borsin.

Oʻtkazilgan nazorat tadbirlari yakuni boʻyicha kamomad va noqonuniy oʻzlashtirishga yoʻl qoʻygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

22. Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qoʻshimcha manbalaridan foydalanish toʻgʻrisidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida budjet qonunchiligiga toʻliq rioya etilgan holda Kengash qarori loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qoʻshimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablagʻlarni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat oʻrnatishga, natijalari boʻyicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yoʻnaltirilishiga hamda ushbu mablagʻlarning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga masʻul etib belgilansin.

23. Viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari (R. Sulaymonov), xalq deputatlari viloyati Kengashi kotibiyati, tuman va shahar hokimliklari, tegishli boshqarma boshliqlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz koʻrsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan koʻrilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablagʻlaridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar boʻyicha xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

24. Viloyat hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va toʻlov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa maʼlumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini taʼminlasin.

25. Mazkur qaror “Doʻstlik bayrogʻi” va “Знамя дружбы” gazetalarida rasmiy eʼlon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

26. Ushbu qaror 2026-yil 1-yanvardan eʼtiboran kuchga kiradi.

27. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari (R. Sulaymonov) va xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (N. Isoqov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **ALIYEV G‘OFIR QUVATOVICH**

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-22-165-5-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Navoiy viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2027-2028-yillarga maqsadli mo‘ljallari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2026-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2027-yil	2028-yil
1	Yalpi hududiy maxsulot, trln. so‘mda	186,7	209,1	228,4
2	Yalpi hududiy maxsulotning o‘sish sur’ati, foizda	106,0	105,9	106,0
3	Sanoat maxsulotning o‘sish sura’ti, foizda	106,0	105,8	106,0
4	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sura’ti, foizda	104,1	103,8	103,8
5	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	113,2	113,3	113,4

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-22-165-5-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Navoiy viloyatining viloyat budjeti daromadlarining soliq turlari kesimida 2026-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘m

T/r	**Daromad turlari**	**Daromad** *(mahalliy)*
JAMI		**2 979 962 977**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	208 074 530
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 614 437 781
3	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	99 931 156
4	Aksiz solig‘i, jami (*benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq*)	136 454 200
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	413 710 000
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	282 248 000
7	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 420 300
8	Davlat boji	94 298 600
9	Jarimalar	73 137 000
10	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	1 926 410
11	Yig‘imlar	51 325 000

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-22-165-5-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yilgi viloyat mahalliy budjetidan budjet tashkilotlari va mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**2 987 945 865**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar jami	**2 770 157 032**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**147 674 242**
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	**70 114 591**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**	**196 510 291**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**117 423 849**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	79 086 442
2	**Kasbiy ta’lim agentligi tashkilotlari**	**181 114 219**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**181 114 219**
	shundan:	
	Kasbiy ta’lim agentligi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	1 549 685
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**154 016 572**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**128 316 572**
	shundan:	
	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati va Xatirchi tumani Sog‘liqni saqlash bo‘limi	8 938 360
	Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	4 063 523
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	25 700 000
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**55 263 250**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**55 263 250**

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Ma’naviyat va ma’rifat markazi**	**2 991 182**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 991 182**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Sport boshqarmasi**	**50 660 551**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**50 660 551**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi**	**6 719 144**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 719 144**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi**	**12 741 810**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**12 741 810**
	shundan:	
	Ko‘p kvartirali uylardagi lift uskunalarini ta’mirlash va yangilash xarajatli	3 150 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Qishloq xo‘jaligi sohasi tashkilotlari**	**34 559 760**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**34 559 760**
	O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi	12 282 919
	Chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurashish xizmati	2 626 475
	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi	5 773 173
	Hayvonlar kasalliklari tashhisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi	3 026 408
	Yaylov xo‘jaliklari boshqarmasi	1 217 411
	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	9 633 374
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Suv xo‘jaligi sohasi tashkilotlari**	**54 040 333**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**36 410 333**
	shundan:	
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	12 100 000

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	5 530 000
11	**Transport boshqarmasi**	**1 578 157**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 578 157**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi**	**43 179 293**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**43 179 293**
	Davlat o‘rmon-ov xo‘jaligi tashkiloti	27 130 698
	Turizim va madaniy meros boshqarmasi	1 858 748
	Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasi	1 413 553
	Ekologiya-atrof muhitni muxofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi	8 446 579
	Oqtog‘-Tomdi davlat qo‘riqxonasi va Markaziy-Qizilqum milliy tabiat bog‘i	4 329 715
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi tizim tashkilotlari**	**1 955 218 504**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 885 103 913**
	shundan:	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	2 310 000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	2 000 000
	Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	11 210 756
	G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining hududiy boshqarmasi	7 418 081
	Kadastr agentligi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 342 577
	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	9 833 201
	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshqarmasi xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi	110 000
	Budjet tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasi xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi	600 000
	Issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	361 183 596
	Tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkaziladigan transfertlar	1 488 095 702
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	70 114 591
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**1 764 445**
	shu jumladan:	

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	joriy xarajatlar	**1 764 445**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 334 123**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 334 123**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**7 136 409**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**7 136 409**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	**Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo boshqarmasi**	**7 088 392**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**7 088 392**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**Adliya boshqarmasi**	**13 790 000**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**13 790 000**
	Arxiv ishlari boshqarmasi	4 899 855
	FXDYo	2 111 372
	Adliya boshqarmasi	6 778 773
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Soliq boshqarmasi**	**70 162 015**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**70 162 015**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	**Hokimiyat**	**100 327 529**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**62 969 729**
	shundan:	
	Hokimlikni saqlash xarajatlari	27 738 828
	Viloyat hokimligi huzuridagi tomorqa sug‘orish markazi Davlat muassasasi	322 969
	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi	558 974
	Zaxira jamg‘armasi	23 342 523
	Axborot-kutubxona markazlari	3 726 987
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	6 079 448
	Avtobus yo‘nalishlarini subsidiyalash	1 200 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	37 357 800

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
21	**Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari**	**8 554 945**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**8 554 945**
	shundan:	
	Xalk deputatlari Kengashi kotibiyati	4 285 724
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi	4 269 221
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22	**Agrosanoat majmui ustidan nazorat kilish inspeksiyasining hududiy viloyat boshkarmasi**	**7 281 430**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**7 281 430**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
23	**Ichki ishlar boshqarmasi**	**5 415 468**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**5 415 468**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24	**Mudofaa ishlari boshqarmasi**	**3 543 142**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 543 142**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25	**Oila va xotin-qizlar qo‘mitasinining hududiy boshqramasi**	**7 175 193**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**7 175 193**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
26	**Boshqa tashkilotlar**	**5 779 708**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**5 779 708**
	Milliy Gavardiyasi Navoiy viloyati Chavandozlar maktabi	1 757 193
	Zaxira omborxona	4 022 515
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-22-165-5-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

Foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Zarafshon shahar	0%	100%	100%	0%	0%	95%	100%	5%	100%	100%	0%	0%
2	Qiziltepa tumani	0%	50%	100%	50%	0%	55%	100%	45%	100%	100%	0%	0%
3	Navbahor tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%
4	Navoiy shahar	0%	34%	100%	66%	0%	2%	100%	98%	100%	100%	0%	0%
5	Nurota tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%
6	Konimex tumani	0%	100%	100%	0%	0%	62%	100%	38%	100%	100%	0%	0%
7	Tomdi tumani	0%	50%	100%	50%	0%	20%	100%	80%	100%	100%	0%	0%
8	Xatirchi tumani	0%	50%	100%	50%	0%	50%	100%	50%	100%	100%	0%	0%
9	Uchquduq tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%
10	Karmana tumani	0%	18%	100%	82%	0%	5%	100%	95%	100%	100%	0%	0%
11	G’ozg’on shahar	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%

№	Hududlar nomi	Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Zarafshon shahar	0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
2	Qiziltepa tumani	0%	30%	100%	70%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
3	Navbahor tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
4	Navoiy shahar	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
5	Nurota tumani	0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
6	Konimex tumani	0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
7	Tomdi tumani	0%	20%	100%	80%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
8	Xatirchi tumani	0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
9	Uchquduq tumani	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
10	Karmana tumani	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%
11	G’ozg’on shahar	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%

№	Hududlar nomi	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Zarafshon shahar	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
2	Qiziltepa tumani	0%	70%	100%	30%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
3	Navbahor tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
4	Navoiy shahar	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
5	Nurota tumani	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
6	Konimex tumani	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
7	Tomdi tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
8	Xatirchi tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
9	Uchquduq tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
10	Karmana tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%
11	G’ozg’on shahar	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

№	Hududlar nomi	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Zarafshon shahar	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
2	Qiziltepa tumani	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
3	Navbahor tumani	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
4	Navoiy shahar	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
5	Nurota tumani	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
6	Konimex tumani	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
7	Tomdi tumani	100%	100%	0%	0%	90%	100%	10%	0%	0%	0%	100%	100%
8	Xatirchi tumani	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
9	Uchquduq tumani	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
10	Karmana tumani	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%
11	G’ozg’on shahar	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%

№	Hududlar nomi	Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1	Zarafshon shahar	100%	0%	60%	40%	65%	35%	66%	34%
2	Qiziltepa tumani	100%	0%	29%	71%	28%	72%	29%	71%
3	Navbahor tumani	100%	0%	51%	49%	50%	50%	50%	50%
4	Navoiy shahar	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%
5	Nurota tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
6	Konimex tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
7	Tomdi tumani	100%	0%	25%	75%	25%	75%	25%	75%
8	Xatirchi tumani	100%	0%	55%	45%	55%	45%	56%	44%
9	Uchquduq tumani	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%
10	Karmana tumani	100%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%

11	G‘ozg‘on shahar	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-22-165-5-0-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi shuningdek, respublika budjetidan (aksiz solig‘i tushumlari hisobidan) hamda viloyat budjetidan tuman va shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Hududlar nomi		Mahalliy budjetlarning jami daromadlar	shundan		Mahalliy budjet xarajatlari
			Mahalliy budjet daromadlari	Tartibga soluvchi transfertlar miqdori	
JAMI:		**4 199 167 900**	**4 095 626 900**	**103 541 000**	**4 199 167 900**
1	Viloyat budjeti	2 951 257 683	2 884 404 865	33 426 409	2 917 831 274
2	Zarafshon shahar	131 763 111	131 763 111		131 763 111
3	Qiziltepa tuman	151 408 026	151 408 026		151 408 026
4	Navbahor tuman	128 444 510	128 444 510		128 444 510
5	Navoiy shahar	178 362 736	178 362 736		178 362 736
6	Nurota tuman	109 604 696	101 590 475	8 014 221	109 604 696
7	Konimex tuman	87 779 308	74 384 167	13 395 141	87 779 308
8	Tomdi tuman	64 166 572	64 166 572		64 166 572
9	Xatirchi tuman	170 393 695	170 393 695		170 393 695
10	Uchquduq tuman	99 312 900	74 183 403	25 129 497	99 312 900
11	Karmana tuman	119 086 760	119 086 760		119 086 760
12	G‘ozg‘on shahar	41 014 312	17 438 580	23 575 732	41 014 312

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-22-165-5-0-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Navoiy viloyati mahalliy budjeti hamda shahar va tumanlari budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hududlar nomi	Miqdor
	JAMI	**24 000 000,0**
1	Viloyat budjeti	11 647 728,0
2	Zarafshon shahri	1 518 455,0
3	Qiziltepa tumani	1 445 544,0
4	Navbahor tumani	1 098 057,0
5	Navoiy shahri	1 711 283,0
6	Nurota tumani	1 023 653,0
7	Konimex tumani	816 382,0
8	Tomdi tumani	588 274,0
9	Xatirchi tumani	1 640 215,0
10	Uchquduq tumani	1 056 564,0
11	Karmana tumani	1 128 369,0
12	G‘ozg‘on shahri	325 476,0